



KORXONALARDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING O‘RNI VA ROLI

Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar

Universiteti Iqtisodiyot va boshqaruv

kafedrasini mudiri, dotsent **G.A. Adilova,**

BMK 22-01 guruh talabasi

Abdukarimova Sabina Botir qizi

Tel:+998993051729

e-mail: sabinaabdukarimova176@gamil.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda asosiy vositalar hisobining o‘rni va roli, ularni hisobga olinishi, samarali boshqarilishi, foydalanish muddati, amortizatsiya hisobi kabi masalalar, shuningdek yangi texnika va uskunalar sotib olish, eski vositalarni yangilash korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash kabi masalalari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: Asosiy vositalar, amortizatsiya, yangi texnika va uskunalar, binolar, inshootlar, mashinalar, aktivlar, buxgalteriya balansi.

Abstract: This article outlines issues such as the place and role of fixed asset accounting in enterprises, their accounting, effective management, service life, depreciation accounting, as well as issues such as the purchase of new equipment and equipment, the renewal of old assets, and the strengthening of the enterprise's market position.

Keywords: Fixed assets, amortization, new equipment and techniques, buildings, structures, machines, assets, balance sheet.

Аннотация: В данной статье изложены такие вопросы, как место и роль учета основных средств на предприятиях, их учет, эффективное управление, срок службы, учет амортизации, а также такие вопросы, как приобретение новой техники и оборудования, обновление старых средств, укрепление рыночных позиций предприятия.

Ключевые слова: Основные средства, амортизация, новая техника и оборудование, здания, сооружения, машины, активы, бухгалтерский баланс.

KIRISH

Asosiy vositalar korxonalar uchun muhim moddiy resurslardan biri bo‘lib, ularning samarali boshqarilishi va hisobga olinishi biznesning muvaffaqiyati va moliyaviy barqarorligi uchun zarurdir. Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan moddiy aktivlar kiradi. Ushbu





maqolada korxonalarda asosiy vositalarning hisobining o'рни va roli, ularning moliyaviy holatga ta'siri va samarali boshqarishning ahamiyati tahlil qilinadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Maqolaning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma'ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Vazirliklar, Davlar qo'mitalari va idoralarning hujjatlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo'riqnomalar, xorijda va Respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog'i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asosiy vositalar hisobi korxonaga egaligidagi uzoq muddat foydalaniladigan moddiy aktivlarning holatini, qiymatini va ulardan foydalanish muddatini aniq va to'g'ri aks ettirishni ta'minlaydi. Bu vositalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, balki ular korxonaning asosiy kapital qismiga kiradi va buxgalteriya balansi tarkibida katta ulushga ega.

Asosiy vositalarning hisobga olinishi moliyaviy hisobotning to'g'riligini ta'minlash bilan bir qatorda, investitsiya rejalarini tuzishda, amortizatsiyani hisoblashda va soliqqa tortish masalalarida ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bu hisob korxonaga aktivlarining haqiqiy qiymatini aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda katta ahamiyatga ega.

Asosiy vositalarning hisobi va buxgalteriya talablari

Buxgalteriya standartlariga ko'ra, asosiy vositalar ularning dastlabki qiymati, foydalanish muddati va amortizatsiya xarajatlari asosida hisobga olinadi. Korxonalar aktivlarning qiymatini to'g'ri hisoblash va ulardan foydalanish muddatini belgilash orqali buxgalteriya balansini aniq va ishonchli shakllantirishi lozim. Amortizatsiya esa vositalarning foydali xizmat muddati davomida ularning qiymatini teng taqsimlash jarayonidir.

Asosiy vositalarning eskirishi va ularning yangilanishi doimiy ravishda kuzatilib borilishi kerak. Shuningdek, asosiy vositalarni hisobga olishda ularning texnik holati, xizmat muddati va foydalanish darajasiga alohida e'tibor beriladi.

Asosiy vositalar hisobi korxonaga moliyaviy holatiga ta'siri

Asosiy vositalar korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biridir. Ularning to'g'ri hisobga olinishi va boshqarilishi korxonaning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi:

1. Moliyaviy barqarorlik





Korxonaning moliyaviy barqarorligi asosiy vositalarning to‘g‘ri hisobga olinishi va ularning holatiga bog‘liqdir. Agar asosiy vositalar samarali ishlatilsa, bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga yordam beradi.

2. Amortizatsiya xarajatlari

Asosiy vositalar eskirish jarayonida amortizatsiya hisoblanadi. Amortizatsiya xarajatlari korxonaning umumiy xarajatlari tarkibiga kiradi va moliyaviy hisobotda aks etadi. To‘g‘ri hisoblangan amortizatsiya xarajatlari soliqqa tortish va foyda ko‘rsatkichlarini aniqlashda muhim omildir.

3. Investitsiya va rivojlanish

Asosiy vositalarning samarali boshqarilishi va to‘g‘ri hisobga olinishi kelajakda yangi investitsiyalarni jalb qilish va rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Yangi texnika va uskunalar sotib olish, eski vositalarni yangilash korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Asosiy vositalar hisobi samaradorligini oshirish yo‘llari

Korxonada asosiy vositalar hisobi samaradorligini oshirish uchun quyidagi qadamlar amalga oshirilishi lozim:

Yangi texnologiyalarni joriy qilish

Korxonalarda raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlaridan foydalanish asosiy vositalarni hisobga olish va boshqarish jarayonini ancha osonlashtiradi. Raqamli tizimlar orqali aktivlar harakati, eskirishi va amortizatsiyasi aniq kuzatib boriladi.

Doimiy monitoring

Asosiy vositalar holatini doimiy kuzatib borish va ularni texnik xizmat ko‘rsatish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini maksimal darajada saqlash mumkin. Eskirgan vositalarni yangilash, texnik holatini tekshirish va ta‘mirlash ishlarini rejalashtirish ularning uzoq muddat ishlashini ta‘minlaydi.

Amortizatsiyani optimallashtirish

Amortizatsiyani to‘g‘ri va aniq hisoblash orqali korxonada xarajatlarini samarali boshqarish mumkin. Buning uchun amortizatsiya usullarini tanlashda iqtisodiy jihatdan eng maqbul usullarni qo‘llash kerak. Asosiy vositalarni amortizatsiyasini hisoblashning 4 xil usuli mavjud va bular quyidagilar.

Teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash.

Uskunaning boshlang‘ich qiymati-1 mln so‘m, tugatish qiymati-100 ming so‘m, foydali xizmat muddati-5 yil





DAVR	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Yig'ilgan eskirish	Qoldiq qiymat
Sotib olingan (foydalanish boshlangan) sana	1000000	-	-	1000000
1-yil oxirida	1000000	180000	180000	820000
2-yil oxirida	1000000	180000	360000	640000
3-yil oxirida	1000000	180000	540000	460000
4-yil oxirida	1000000	180000	720000	280000
5-yil oxirida	1000000	180000	900000	100000

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Uskunaning boshlang'ich qiymati-1 mln so'm, tugatish qiymati-100 ming so'm, foydali xizmat muddati-5 yil, foydalanish umumiy vaqti-9000 soat

DAVR	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Yig'ilgan eskirish	Qoldiq qiymat
Sotib olingan (foydalanish boshlangan) sana	1000000	-	-	-
1-yil oxirida	1000000	2000	200000	200000
2-yil oxirida	1000000	3000	300000	500000
3-yil oxirida	1000000	1000	100000	600000
4-yil oxirida	1000000	2000	200000	800000
5-yil oxirida	1000000	1000	100000	900000

Ikki karra amortizatsiya me'yorini bilan qoldiqni kamaytirish usuli.

Uskunaning boshlang'ich qiymati-1 mln so'm, tugatish qiymati-100 ming so'm, foydali xizmat muddati-5 yil

DAVR	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Yig'ilgan eskirish	Qoldiq qiymat
------	---------------------	------------------------------	--------------------	---------------





Sotib olingan (foydalanish boshlangan) sana	1000000	-	-	1000000
1-yil oxirida	1000000	$(40\% \times 1000000) = 400000$	400000	600000
2-yil oxirida	1000000	$(40\% \times 600000) = 240000$	640000	360000
3-yil oxirida	1000000	$(40\% \times 360000) = 144000$	784000	216000
4-yil oxirida	1000000	$(40\% \times 216000) = 86400$	870400	129600
5-yil oxirida	1000000	29600	900000	100000

Yillar summasi usuli (kumulyativ usul)

Uskunaning boshlang'ich qiymati-1 mln so'm, tugatish qiymati-100 ming so'm, foydali xizmat muddati-5 yil

Har hil turdagi asosiy vositalarga nisbatan amortizatsiya hisoblashning turli

DAVR	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Yig'ilgan eskirish	Qoldiq qiymat
Sotib olingan (foydalanish boshlangan) sana	1000000	-	-	1000000
1-yil oxirida	1000000	$(5/15 \times 900000) = 300000$	300000	700000
2-yil oxirida	1000000	$(4/15 \times 900000) = 240000$	540000	460000
3-yil oxirida	1000000	$(3/15 \times 900000) = 180000$	720000	280000
4-yil oxirida	1000000	$(2/15 \times 900000) = 120000$	840000	160000
5-yil oxirida	1000000	$(1/15 \times 900000) = 60000$	900000	100000

usullarini qo'llashga yo'l qo'yiladi. Shu bilan birga, asosiy vositalarning bir hildagi obyektlari (rusumi, turi) bo'yicha faqat bir hil usul qo'llaniladi.

Amortizatsiya hisoblashning tanlangan usuli korxonaning hisob siyosati bilan belgilanishi va bir hisobot davridan boshqasigacha yil davomida o'zgarmagan holda ketma-ket qo'llanilishi lozim.

XULOSA

Korxonalarda asosiy vositalar hisobi moliyaviy barqarorlik, samarali boshqaruv va rivojlanish uchun juda muhim hisoblanadi. Asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash va kelgusida yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish





yordamida asosiy vositalarni samarali boshqarish imkoniyatlari yanada kengayib boradi.

Asosiy vositalarni buxgalteriyada hisobga olishning eng asosiy vazifalaridan biri shundan iboratki, u mavjud asosiy vositalardan to'g'ri va unumli foydalanib, imkoni boricha ko'p va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni va ishlab chiqarishga sarflangan har bir so'mning rentabellik darajasini oshirishni ta'minlashi kerak. Chunki mavjud qarorlarga ko'ra, barcha sub'ektlar mulklar uchun byudjetga soliq to'lashlari kerak. Bu to'lovlarning summasi mulklarning miqdoriga qarab mutanosib ravishda o'zgaradi, asosiy kapitalning qiymati oshgan sari to'lovlarning summasi ham oshib boradi, bu esa sub'ekt foydasining kamayib ketishiga ta'sir qiladi. Bunday iqtisodiy siyosat sub'ektlarni ortiqcha asosiy mablag'lardan voz kechishga, eng zarur bo'lgan asosiy vositalarni olib qolib, ulardan unumli foydalanishga majbur qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. – T.: 13.04.2016.
2. 5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Asosiy vositalar" (O'zR AV tomonidan 20.01.2004 yilda 1299-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).
3. M.Sh. mamatkulov, A.Z. Tabayev Buxgalteriya hisobi o'quv qo'llanma Toshkent 2022.
4. B. Isroilov, Buxgalteriya hisobi nazariyasi: Darslik - Toshkent: Tafakkur , 2020. - 240 b.
5. Karimov A.A., Ochilov I.K., G'aniyev Z.U. Buxgalteiya hisobi (II qism) Darslik, Toshkent "Iqtisod-moliya", 2020
6. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov Buxgalteriya hisobi Darslik "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent – 2021
7. I.Ochilov, U.To'lakov va A.Xudaykulovlar. Darslik/Toshkent: "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti 2024.–568 bet.

